Koreyscha
Instagram

Ruscha
Instagram

# KOREYS TILINI O‘RGANING KOREYANI HIS QILING KELAJAGINGIZNI BARPO ETING

Koreys tilini o‘rganib, Koreya madaniyatini yaqindan his eting -
biz bilan birga orzularingizni ro‘yobga chiqarib, dunyo sari yo‘l oching.

부천대학교
BUCHEON UNIVERSITY

O'ZBEKCHA

GLOBAL LANGUAGE CENTER OF BUCHEON UNIVERSITY

# Puchon universiteti Xalqaro til markazi

Koreys tilini o‘rganing -
kelajagingiz uchun yangi imkoniyatlar yarating

부천대학교
BUCHEON UNIVERSITY

# Xalqaro ta’lim salohiyati bo‘yicha sertifikatlangan universitet

## (daraja dasturlari va til kurslari)

Puchon universiteti Koreya Respublikasi Ta’lim vazirligi tomonidan xalqaro ta’lim salohiyati bo‘yicha sertifikatlangan bo‘lib, xorijiy talabalar uchun koreys tilini tizimli o‘rganishga mo‘ljallangan zamonaviy ta’lim muhitiga ega.

Universitet xorijiy talabalarga koreys tilini rivojlantirish, Koreya madaniyatini o‘rganish, universitetga kirishga tayyorlanish va Koreyada muvaffaqiyatli kelajak qurishga yordam beruvchi ta’lim va qo‘llab-quvvatlash dasturlarini taklif etadi.



[ 2025-AC-0110 ]

**THE 4th Period ACCREDITED UNIVERSITY by IEQAS**

(International Education Quality Assurance System)

부천대학교
BUCHEON UNIVERSITY

2026.3. ~ 2030.2.

Ministry of Education





# WHY BUCHEON UNIVERSITY?

## NEGA PUCHON UNIVERSITETI?

### Koreya Respublikasi davlat organlari tomonidan tan olingan ta’lim tizimi!

| | |
|---|---|
| Ministry of Education | **Ta’lim vazirligi tomonidan xalqaro ta’lim salohiyati bo‘yicha sertifikatlangan (daraja dasturlari va til kurslari)** |
| Ministry of Justice | **Adliya vazirligi tomonidan talab yuqori bo‘lgan texnik yo‘nalishlar bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash dasturiga tanlangan(E-7-M vizasi)** |
| Ministry of Employment and Labor | **Bandlik va mehnat vazirligi tomonidan bazaviy sanoat tarmoqlari uchun xorijiy texnik mutaxassislar tayyorlash universiteti sifatida tanlangan** |
| Ministry of Justice | **Adliya vazirligining Ijtimoiy integratsiya dasturi (KIIP) rasmiy operatori** |
| TOPIK | **TOPIK imtihonini o‘tkazuvchi rasmiy markaz** |

### Puchon universitetining afzalliklari

- **Qulay joylashuv - Seul, Incheon va Gyeonggi hududlariga taxminan 30 daqiqada yetib borish mumkin**
- **Metro bekatidan universitetgacha taxminan 10 daqiqa**
- **Xorijiy talabalar uchun maxsus stipendiyalar**

**D-4 dan D-2 ga o‘tishda kirish to‘loviga 50% chegirma**

(Puchon universitetining muntazam koreys tili kursini tamomlagan talabalar uchun maxsus imtiyoz)

# Puchon universiteti -
# dunyo bilan birga rivojlanamiz

**Daraja dasturlaridagi xorijiy talabalar (D-2)**

**21** davlatdan **343** nafar talaba

**Til kurslaridagi xorijiy talabalar (D-4)**

**25** davlatdan **543** nafar talaba

※ 2026-yil avgust holatiga ko‘ra








# Puchon universiteti
# Muntazam koreys tili kursi (D-4)

## Qabul talablari

O‘rta ma’lumot yoki undan yuqori

## Ta’lim jarayoni

| Daraja | Dars vaqti | Ta’lim tartibi |
|---|---|---|
| **1–2-daraja** | 13:30 ~ 17:30 | - Har semestr 10 hafta (200 soat)<br>- Haftasiga 5 kun (Du–Ju), kuniga 4 soat<br>- Guruhda 20 nafargacha |
| **3–6-daraja** | 9:00 ~ 13:00 | |

## Semestr jadvali

| Yil | Semestr | O‘qish muddati | Hujjat topshirish muddati |
|---|---|---|---|
| 2027 | Bahor | 2027.03.08. ~ 2027.05.14. | 2026.12.07. ~ 2027.02.12. |
| | Yoz | 2027.06.07. ~ 2027.08.13. | 2027.03.08. ~ 2027.05.14. |
| | Kuz | 2027.09.06. ~ 2027.11.12. | 2027.06.07. ~ 2027.08.13. |
| | Qish | 2027.12.06. ~ 2028.02.11. | 2027.09.06. ~ 2027.11.12. |

※ Universitet sharoitiga ko‘ra jadval o‘zgarishi mumkin.
※ Viza hujjatlarini topshirish muddati davlatga qarab farq qiladi, shu sababli **hujjat topshirishdan oldin aniqlashtirish zarur.**

## O‘qish xarajatlari

| Toifa | Narxi | Izoh |
|---|---|---|
| **O‘qish to‘lovi** | **1 300 000 von / semestr** | D-4 vizasiga ariza berishda: OECD davlatlari fuqarolari<br>- 2 semestr uchun; boshqa davlatlar fuqarolari<br>- 4 semestr uchun to‘lov |
| **Ariza topshirish to‘lovi** | **50 000 von** / faqat yangi talabalar | Qaytarilmaydi |

※ Tibbiy sug‘urta - **100 000 von**, darsliklar alohida to‘lanadi.
※ Sug‘urta muddati - **darslar boshlanganidan keyin 6 oy.**










## Ariza topshirish va qabul jarayoni

※ Hujjatlarni topshirishdan viza olishgacha odatda **1 oy** vaqt ketadi. Viza rasmiylashtirish muddati davlatga qarab farq qiladi, shu sababli yashash joyingizdagi **Koreya Respublikasi elchixonasi yoki Bosh konsulxonasidan** oldindan ma’lumot olish tavsiya etiladi.

### 1-bosqich. Hujjatlar va suhbat

1. Ariza va hujjatlarni topshirish
   - elektron pochta (bcuoia@bc.ac.kr) orqali yoki shaxsan
2. Hujjatlarni ko‘rib chiqish va suhbat

※ Elektron pochta orqali hujjatlar **PDF formatida** topshiriladi.

### 2-bosqich. Natijalarni e’lon qilish

1. Natijalarni e’lon qilish va o‘qish to‘lovini to‘lash
2. Hujjatlarning asl nusxalarini topshirish (hujjatlar ro‘yxatiga qarang)
3. Viza olish uchun hujjatlarni berish (faqat viza talab etiladiganlar uchun)

※ Natijalar **suhbatdan keyin 3 kun ichida** e’lon qilinadi.

### 3-bosqich. Vizaga ariza berish va olish

1. Vizaga ariza topshirish (arizachining mamlakatidagi Koreya Respublikasi elchixonasida)
2. Viza olingandan so‘ng Koreyaga kirish
   - kirish sanasini universitetga oldindan ma’lum qilish kerak

※ Xohlovchilar uchun **onlayn daraja aniqlash testi** mavjud.

## Topshiriladigan hujjatlar

<table>
<tr><th>№</th><th>Hujjatlar</th><th>Izoh</th></tr>
<tr><td>1</td><td>Qabul arizasi (universitet shakli) - 1 nusxa ※ 3,5 × 4,5 sm fotosurat</td><td></td></tr>
<tr><td>2</td><td>Tarjimai hol va o‘qish rejasi (universitet shakli) - 1 nusxa</td><td></td></tr>
<tr><td>3</td><td>Ta’lim xarajatlarini to‘lash bo‘yicha kafolat xati (universitet shakli) - 1 nusxa</td><td>Kafil - ota-onadan biri</td></tr>
<tr><td>4</td><td>Shaxsiy ma’lumotlarni yig‘ish, ulardan foydalanish va uchinchi tomonga taqdim etishga rozilik (universitet shakli) - 1 nusxa</td><td></td></tr>
<tr><td>5</td><td>Pasport nusxasi - 1 nusxa</td><td>Chet ellik ro‘yxat kartasi borlar uning nusxasini ham topshiradi</td></tr>
<tr><td>6</td><td>Diplom va baholar transkripti (o‘rta maktab va undan yuqori) - 1 nusxadan
<table>
<tr><td rowspan="2">Apostil (Apostille)</td><td>Apostil konvensiyasi davlatlari</td><td>tarjima + apostil</td></tr>
<tr><td>Konvensiyaga kirmaydigan davlatlar</td><td>notarial tasdiqlangan tarjima + Koreya Respublikasi elchixonasining konsullik tasdig‘i yoki tegishli davlatning Koreyadagi elchixonasi tasdig‘i</td></tr>
<tr><td rowspan="2">Xitoy</td><td>umumta’lim maktabi bitiruvchilari</td><td>CSSD ta’lim ma’lumotini tasdiqlash hisoboti yoki diplom va baholar transkriptiga apostil</td></tr>
<tr><td>kasb-hunar maktabi bitiruvchilari</td><td>mahalliy ta’lim organi bergan diplom + apostil yoki konsullik tasdig‘i</td></tr>
</table>
- Barcha notarial tasdiqlangan hujjatlar oxirgi 6 oy ichida berilgan bo‘lishi kerak.</td><td>Asl nusxalar</td></tr>
<tr><td>7</td><td>Tug‘ilganlik guvohnomasi yoki qarindoshlikni tasdiqlovchi hujjat. Ota-ona ajrashgan yoki vafot etgan bo‘lsa - buni tasdiqlovchi hujjat</td><td>Asl nusxalar</td></tr>
<tr><td>8</td><td>Bank hisobida kamida 10 000 000 von mavjudligini tasdiqlovchi ma’lumotnoma - 1 nusxa. • Arizachi yoki ota-onadan biri nomidagi hisob qabul qilinadi. • Hisob ota-ona nomida bo‘lsa: ish joyidan ma’lumotnoma, daromad ma’lumotnomasi yoki tadbirkorlik guvohnomasi nusxasi. • Hujjat ariza topshirishdan oldingi 30 kun ichida berilgan bo‘lishi kerak. • Mablag‘ni saqlash muddati viza rasmiylashtirish muddatiga qarab belgilanadi. Vyetnam fuqarolari: Vyetnamdagi Koreya bankidan o‘qish uchun depozit ma’lumotnomasi, depozit muddati - hujjat topshirilgan kundan boshlab kamida 6 oy</td><td>Asl nusxalar</td></tr>
<tr><td>9</td><td>TOPIK yoki KLAT sertifikati nusxasi (mavjud bo‘lsa)</td><td>Majburiy emas</td></tr>
</table>

**[Hujjatlarni topshirishda muhim ma’lumotlar]**

1. Agar hujjatning asl nusxasi koreys, ingliz yoki yapon tilida bo‘lmasa, ushbu tillardan biriga tarjima qilinib, apostil yoki Koreya Respublikasi konsulligi tasdig‘i olinishi kerak. Tarjima asl hujjat bilan birga topshiriladi.
2. Agar hujjatning asl nusxasi faqat bir dona bo‘lsa, undan nusxa olinib, nusxaga apostil yoki Koreya Respublikasi konsulligi tasdig‘i olinishi kerak.
3. Elektron pochta orqali hujjatlar faqat PDF formatida qabul qilinadi.
4. D-4 vizasidan boshqa viza egalari baholar transkripti va bank hisobidagi mablag‘ to‘g‘risidagi ma’lumotnomani topshirishdan ozod etiladi.
5. D-4 vizasidan boshqa viza egalari 1–7-bandlardagi hujjatlarning nusxalarini notarial tasdiqsiz topshirishlari mumkin.
6. Koreys tilini o‘rganish uchun D-4 vizasi Koreyada umumiy hisobda 2 yilgacha uzaytirilishi mumkin.
7. Topshirilgan hujjatlar qaytarilmaydi.

## Puchon universiteti

# Xorijiy talabalarni qo‘llab-quvvatlash

Universitet xorijiy talabalarning Koreyada muvaffaqiyatli ta’lim olishi va yashashi uchun turli **stipendiyalar va qo‘llab-quvvatlash dasturlarini** taqdim etadi.

### Stipendiya dasturi

| Toifa | Mazmuni |
|---|---|
| **Muntazam koreys tili kursi bitiruvchilari uchun maxsus stipendiya** | Puchon universitetining daraja dasturiga (D-2) kirishda<br>- **kirish to‘loviga 50% chegirma** |
| **Yuqori o‘zlashtirish uchun stipendiya** | **Har bir darajada 1-o‘rin - o‘qish to‘loviga 50% chegirma**<br>(keyingi semestr to‘lovidan chegiriladi) |

### Ona tilida ko‘mak

Xorijiy talabalar o‘z ona tilida mutaxassislardan maslahat va yordam olishlari mumkin.(vyetnam, myanma, ingliz, yapon, rus va boshqa tillarda)

### TOPIK imtihonini o‘tkazish

Puchon universiteti **TOPIK (PBT, IBT) imtihonini o‘tkazuvchi rasmiy markaz** hisoblanadi.Universitet xorijiy talabalariga TOPIK uchun guruh bo‘lib ro‘yxatdan o‘tish va imtihonni universitetning o‘zida topshirish imkoniyati taqdim etiladi.






### Xorijiy talabalar uchun dam olish hududi

Xorijiy talabalar uchun maxsus qulay hudud tashkil etilgan bo‘lib, u yerda talabalar bo‘sh vaqtida **dam olishi va dars qilishi** mumkin.

### Qisqa muddatli ta’lim dasturlari

Dasturlar **turli mutaxassisliklar bilan tanishish, koreys tili darslari va Koreya madaniyatini o‘rganishni** o‘z ichiga oladi.
- Universitetlar, davlat tashkilotlari, kompaniyalar, ta’lim muassasalari va boshqalar uchun tashkil etiladi.









## Puchon universiteti

# Xorijiy talabalar uchun ta’lim va kasbiy yo‘nalish dasturlari

Universitet xorijiy talabalarga **koreys tilini rivojlantirish va kelajak kasbini tanlashga yordam beruvchi dasturlarni bepul** taqdim etadi.

### TOPIKga tayyorgarlik

Koreys tilini bilish darajasi imtihoni (TOPIK)ga tayyorlov dasturi.

### Universitetga kirish bo‘yicha mentorlik

Puchon universitetining daraja dasturlariga kirish haqida ma’lumot va D-2 dasturida tahsil olayotgan xorijiy talabalar bilan mentorlik va maslahatlar.









### Mutaxassisliklar bilan tanishish

Puchon universitetida kelajak yo‘nalishini tanlash uchun turli mutaxassisliklarni amalda sinab ko‘rish va yaqindan tanishish imkonini beruvchi dastur.

### Koreya qonunchiligi asoslari

Koreyada xavfsiz yashash uchun zarur qonun-qoidalar va huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha ta’lim.










## Puchon universiteti

# Xorijiy talabalar uchun tadbirlar

Tanishuv videosi

Universitet xorijiy talabalarning qulay ta’lim olishi va moslashishi uchun turli **madaniy, sport va ko‘ngilochar dasturlarni bepul** tashkil etadi.

### Global Friendship Camp

Koreyalik va xorijiy talabalar ishtirokidagi do‘stlik oromgohi. (faol dam olish va jamoaviy tadbirlar)






### Xorijiy talabalar sport festivali

Talabalarning birgalikda harakat qilishi, muloqot qilishi va umumiy maqsadlarga erishishiga yordam beruvchi sport va jamoaviy tadbirlar.






### Koreya madaniyati bilan tanishish

Koreyaning diqqatga sazovor joylari, an’analari va madaniyati bilan yaqindan tanishish imkonini beruvchi sayohat va dasturlar.






### Koreyaning an’anaviy bayramlari

Koreya bayramlari va an’analari bilan tanishish, birgalikdagi tadbirlar va milliy taomlardan bahramand bo‘lish dasturi.









## Puchon universiteti

# Xorijiy talabalar uchun yotoqxona va qulayliklar

Universitet xorijiy talabalarga **qulay yashash va ta’lim olish uchun yotoqxona hamda turli qulayliklarni** taqdim etadi.

### Yotoqxona

| | |
|---|---|
| Kimlar ariza topshirishi mumkin | Muntazam koreys tili kursining yangi va davom etayotgan talabalari |
| To‘lov tartibi | Viza olish → yotoqxonaga joylashish haqida xabar → yotoqxona to‘lovini amalga oshirish |
| Yotoqxona to‘lovi | **2 kishilik xona**: oyiga 300 000 von. **3 kishilik xona**: oyiga 250 000 von.<br>※ Depozit: 2 kishilik xona uchun 600 000 von / 3 kishilik xona uchun 500 000 von. Kirishda to‘lanadi va chiqishda qaytariladi. |
| Qulayliklar | Xonada: stol, karavot, isitish va konditsioner, hammom/hojatxona va boshqalar. Umumiy: kir yuvish xonasi, oshxona va boshqalar |
| Yashash muddati | Har 3 oyda uzaytirish mumkin |
| Aloqa | +82-32-610-0733 |


Xalqaro talabalar turar joyi


2 kishilik xona


3 kishilik xona


Umumiy oshxona

### Qulayliklar

Kutubxona



Kafe



Talabalar oshxonasi



Dam olish hududi



### Maslahat va aloqa

| | | |
|---|---|---|
| Telefon | Koreys / yapon / ingliz tillari | +82-32-610-0728 |
| | Vyetnam tili | +82-32-610-0730 |
| | Myanma tili | +82-32-610-0737 |
| e-mail | bcuoia@bc.ac.kr | |
| Veb-sayt | https://dept.bc.ac.kr/itntn/index.do | |
| Manzil | (14632) 경기도 부천시 원미구 신흥로56번길25 몽당기념관 402호<br>부천대학교 글로벌어학센터 | |
| | Bucheon University Global Language Center<br>Room 402, Mongdang Memorial Hall, 25 Sinheung-ro 56beon-gil, Wonmi-gu,<br>Bucheon-si, Gyeonggi-do, Republic of Korea (Zipcode: 14632) | |